



## O‘SMIRLARDA MILLIY QADRIYATNI SHAKILLANTIRISH

*Datqayeva Feruza Ubaydullayevna*

*1-kurs magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** oilada o‘smirlarni milliylik bilan birga ulg‘ayishi, milliylikni tarbiyaga ta‘siri, o‘smirlar va milliy qadriyatlar, milliylikni ardoqlash yo‘llari va ijobiy ta‘sirlari, oilada qadriyatlarga amal qilish foydalari.

**Kalit so‘zlar:** oila, o‘smirlar, milliylik va tarbiya, qadriyatlar, inson, shaxs, vatan, jamiyat, hurmat, avlod

**Annotation:** Raising of teenagers with national values, the influence of values to behavior, teenagers and national values, the way of care about nationality and the positive affects, follow of values in the family.

**Keywords:** family, teenagers, nationality and upbringing, value, man, person, homeland, society, respect, generation

Oila bu kichik vatan timsoli. Bu vatanda har-kim o‘z o‘rniga ega. Dunyo yuzini ko‘rgan kundan boshlab har-bir inson oilasidagi muhitdan o‘rnak oladi. Shu jumladan, jamiyatga yo‘l kichik vatanda yani biz tug‘ilib o‘sgan oilamizdan boshlanadi. Oilaning barcha a‘zolari, bobo-buvimiz, ota-onamiz va boshqalardan inson jamiyat va turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishni o‘rgana boshlaydi. Katta hayotga qadam qo‘yadi. Teta-poya qilib o‘z maqsadlari sari odimlaydi. Keyinchalik esa katta-katta qadamlar bilan odimlab o‘z o‘rnini egallaydi. Oila qurish ham shu jumladan. Erkakmi yoki ayol o‘z zuriyotlariga avvalam bor o‘zi unib-o‘sgan oilasidagi urf-odatlarini, qadriyatlarini o‘rgatishdan boshlaydi. Albatta, farzandlar buni o‘zlashtirib o‘zlaridan keying qoladigan avlodga yetkazadi. O‘zbek oilalarida avvalam bor kattalar fikri inobatga olinadi. Ahir qari bilganni pari bilmas degan naqilga qamal qilinadi. So‘ngra boshqalar fikri muhokama qilinib bir fikrga kelinadi.

Bu ham o‘z yo‘lida hamjihatlikning bir nishonasi yani qadriyatlarimizdagi kabi kattalarga hurmat kichiklarga izzat borasida yo‘l tutiladi. Farzandlarchi? Ular ulg‘ayib fikralsh doirasi o‘zgartirganda, jamiyatda o‘z o‘rniga asta sekinlik bilan erishayotgan bir vaqitda oilada ularning o‘rni qanday bo‘ladi? Albatta bu har-bir insonning ulga‘yyotgan oilasiga bog‘liq. Turli millatlarda turlicha bo‘lgan urf-odatlar bizning o‘zbek oilalarida



qanday. O‘smirlik yoshidagi farzandlarga munosabatchi? Zamonamiz rivojlangani sari yosh avlodning ham fikrlash doirasi o‘zgaraveradi. Fikrlash doirasi kengayaveradi, bu jamiyatimiz talabi. Biz shu diyorda yashar ekanmiz o‘smirlarimizni milliy ruhda, qadriyatlar asosida tarbiyalashimiz joiz. O‘smirlarimiz milliy qadriyatlarimizni unutmagan holda ulg‘ayishlari maqsadga muvofiq. Bu yo‘lda yosh avlod mentalitetini unutmagan holda o‘z manfaatalarini O‘zbekiston va jamiyat manfaatlari bilan birgalikda qadriyatlarni qo‘llab quvatlagan holda ulg‘ayishi shart. Buning uchun barcha sharoitlarni ishga solish kerak. Milliy urf-odatlarimizni oilamiz davrasida doimiy qo‘llab, milliy bayramlarimizni ko‘tarinki ruhda nishonlab, bir –birlariga sovg‘a ulashib bu bayramni yanada muhim ekanligini takidlab yoddan chiqarmaslik uchun harakat qilish lozim. Bu bilimlar bog‘cha va maktablarda yanada kuchliroq yo‘lga qo‘yilib milliy bayramlarimizda yigit-qizlarimizni milliy liboslarda bezanib kelishlarini olg‘a surish qadriyatlarimizni, farzandlarimizda milliylikni yanada rivojlanishiga yana bir kichik hissamizni qo‘shgan bo‘lardik.

Tarbiya bu insonning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shuvchi fazilatlardan biri. Albatta kelajak avlod tarbiya namunalarini yoshi kattalardan qaysidir ma’nodan qisman kattalardan ko‘chirib oladi. Ajdodlar nimani ilgari sursalar yosh avlod shundan tarbiya topib ulg‘ayadi. Demakki biz tarbiyani avvalam bor o‘zimizdan munosib namuna qilib ularaga ko‘rsata olishimiz shart. Bizning milliylikimiz hech qachon o‘smirlarda vulgarizm, behayollik, hurmatsizlikni qo‘llab-quvatlamagan. Ayol-qizlarimizni ibo bilan kiyinishi, o‘gil-qizlarimizni transport va kutish joylarida Yoshi ulug‘larga joy berishi, salom berishi hamda erta tongda hovli va ko‘chalarga suv sepib supurishlari ham bizning ajdodlarimizdan qolgan milliy urf-odatlarimizning bir qismi hisoblanadi. Bunda biz milliylikimiz yoshlarimiz tarbiyasiga ijobiy ta’sir korsatmoqda deb fahr bilan ayta olamiz.

Vatanimiz hurlikka erishgandan buyon yurtimizda milliy qadriyatlarimizni olg‘a surishga to‘siqlar qolmadi. Shunday ekan yoshlarga bemalol go‘daklik davridan bu bunday urf-odat, bu shunday qilinadi deya ongiga singdirishda biz xizmatimizni ayamasligimiz kerak. Masalan milliy tarihga ega bo‘lgan qadriyatlarimizni eslatuvchi erkaklar do‘ppisi. Nega endi uni faqat maxsus marosimlarda yoki tadbirlarda kiyishimiz kerak. Albatta do‘ppilarimizni quyoshli kunlarda yoki kundalik tarzidagi bosh kiyimi sifatida ham qo‘llashimiz mumkun. O‘smir qizlarimiz ham atlas va adras matolaridan zamonga mos



holatda ibo-hayodan chetga chiqmagan tarzda go'zal liboslar yaratishda davom etib ularni sayl vaqtida yoki oila a'zolari bilan birgalikda vaqt o'tkazishga borganlarida kiyishlari mumkin. Bugungi kunda butun jahonda bizning matolarimizning o'z orni bor. Turli moda tanlovlarida jahon podiumlarida ayol-qizlarimiz, yigitlarimiz matolarimizdan rang-barang qilib milliylikimizga mos ibo-hayo ufurib turgan qadriyatlarimizni eslatuvchi matolarimizni turli xalqlarga ulashib kelmoqda. Eng quvonarlisi ular buni qiziqish bilan qabul qildilar. Buning ijobiy ta'sir doirasini yosh vatandoshlarimizda yaqqol kuzatishimiz mumkin. Avvalgi kunlarga qaraganda yoshlar orasida milliy kiyimlarimizdan foydalanish kofisenti oshgan. Yigitlarimiz issiq yoz kunlarida yaktak kiyishga odatlangan bo'lsa qizlarimiz orasida kelinlik davrida ko'zni quvnatuvchi adras va atlaslarimizdan bejirim zamon bilan hamnafas ammo milliylik tark etmagan liboslardan foydalanishayotganini ko'p marta guvohi bo'lyapmiz.

Qadriyat bu, shubhasiz, odamzot uchun muhim bo'lgan unutilishga yo'l qo'yib bo'lmaydesak haqiqatdan yiroq bo'lmaydi. Unga amal qilish esa bizni tariximiz bilan uzviy bog'lab beruvchi, iftixorimiz va g'ururlanib boshqa xalqlarga kimligimizni anglatish uchun bir manba desak adashmagan bo'lamiz. Har qaysi jamiyatni yuksalishi millatimiz yoshlarini milliy ruhda o'stirish urf-odatlarimizga tayangan holda tarbiyalash, xaq-huquqlarini to'g'ri o'rgatishga asoslanadi. Shundagina oila deb atalmish kichik jamiyatimizda qadriyatlarimizga amal qilish foydalarini boshqa yurt vakillari oldida boshimizni tik tutib o'zbekligimizni va o'z qadriyatlarimizga sodiq ekanligimizni ko'rsatib g'ururlanishimiz mumkin.

Xulosada kelib chiqadiki, o'smirlarda milliy qadriyatlarni shakillantirish uchun, avvalombor, o'zimiz ularga amal qilishimiz kerak. Sayyoradoshlarimiz orasida ularni qanchalik qadrlab amal qilishimizni va farzandlarimiz orasida targ'ib qilishimizni namuna qilib ko'rsatishimiz kerak. Biz milliy qadriyatlarimiz bilan faxrlanyapmizmi, demakki, kelajak avlod buni bizdan o'rganadi va g'urur bilan namoyish qilishdan charchamaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Aziza Muxsiyeva. OILA PEDOGOGIKASI. Toshkent-2018. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedogogika universiteti.



2. N.M.Latipova, Q.N.Qayumov. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. Toshkent-2021
3. B.T.Qodirova. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. O‘quv qo‘llanma. Andijon davlat universiteti. Toshkent “Innovatsiya-ziyo”2021.
4. Muhammadjon Imomnazarov. MILLIY MA’NAVIYATIMIZ ASOSLARI (o‘quv qo‘llanma). O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti. Toshkent-2016
5. M.V.Hakimova. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi (darslik) “Step by step print”MChJ . Andijon-2023